



UDK: 102:02:00-7.101.4(070:12)

Nargiza RAXMATOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: Nargizarahmatova91@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, DSc B.Omonov taqrizi asosida

OILAVIY MUNOSABATLARGA OID QARASHLARNING RIVOJLANIB BORISHI

Annotatsiya

Maqolada oilaning jamiyatdagi o'rni nikoh masalasining, farzandlarning tarbiyasidagi o'zaro munosabatlarning bugungi hamda sharq mutafakkir asarlari bilan qiyosiy tahlil asosida fikrlar berilgan. Oila mehr - muhabbat, jipslik, birdamlik, manbaidir. Ana shu o'zbekona qadriyatlar asosida jamiyat rivojlanib boradi. Haqiqatdan ham asrlar davomida sharqona va milliy tarbiyada shaxsning umuminsoniy umummadaniy dunyoqarashi shakllanishi albatta oiladan boshlanadi. Maqolada Farzandlarimizning tarbiyasida asosan oilaviy va ijtimoiy muhitga e'tiborimizni doim qaratgan holda amaliy tavsiya berib turishimiz kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabat, jamiyat, ijtimoiy muhit.

РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация

В статье излагаются размышления о роли семьи в обществе, проблеме брака и взаимоотношениях в воспитании детей на основе сравнительного анализа трудов современных и восточных мыслителей. Семья – источник любви, солидарности и единства. На основе этих ценностей развивается узбекское общество. Ведь на протяжении веков в восточном и национальном воспитании формирование общечеловеческого, общечеловеческого и культурного мировоззрения человека непременно начинается с семьи. В статье рассматривается необходимость постоянного внимания к семейной и социальной среде в воспитании наших детей, даются практические рекомендации.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, семейные отношения, общество, социальная среда.

DEVELOPMENT OF VIEWS ON FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation

The article presents ideas on the role of the family in society, the issue of marriage, and the relationship in raising children based on a comparative analysis of the works of modern and eastern thinkers. The family is a source of love, solidarity, and unity. On the basis of these Uzbek values, society develops. Indeed, for centuries, in oriental and national education, the formation of a universal, universal, and cultural worldview of a person certainly begins with the family. The article discusses the need to constantly pay attention to the family and social environment in the upbringing of our children, giving practical recommendations.

Keywords: family, family values, family relationships, society, social environment.

Kirish. Nikoh, oila qurish Alloh taoloning insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo'lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi[1].

Nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, o'zaro ishonch tushunish va mehr-muhabbat umumiyliigi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhni bu - oila deyiladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, oila ko'p muddatga yani insoniyatning paydo bo'lishidan hozirgi davrgacha yani uzoq davrlardan buyon shakllanib, takomillashib asosiy o'z ahamiyatini yuqotib kelmagan institut;

ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar insonparvarlik, avvalo oila muhitida shakllanadi va bu jarayon bobo buvijonlarimizning o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda ta'limga hamda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi;

uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yokida ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila

a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuq odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin

Muhokama va natijalar. Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida ostida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o'zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz.

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan.

Oil a uzoq davrlarning almashinuvidan qat'i nazar o'z ahamiyatini qimmatini yo'qotmaydigan qadriyatlarni o'zida mujassam qilgan, ijtimoiy ahamiyati so'nmaydigan institut bo'lgani bois barcha zamonlarda mutafakkirlar va mutaxassislar oila bilan bog'liq muammolarni muntazam tahlil

qilib kelganlar. Jumladan, Qadimgi davr Xitoy mutafakkiri Konfutsiy ta'limotida ham oilaviy munosabatlar oilaning tarbiyaviy ahamiyati haqida keng fikr va mulohazalarini shogirdlariga ta'kidlaydi. Konfutsiy ta'limotidagi "Syao" ta'limoti eng ulug' deb hisoblaydi. "Syao" bu – insonning o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqida g'oyani o'zida mujassam qilgan qarash hisoblanadi. Konfutsiy ta'limotida inson uchun syaodan muhimroq narsa yuqdir. Hozirgi kun uchun ham, ota-onasiga munosib farzand bo'lish bu ota uchun iftihor bo'lsa ona uchun g'urur hisoblanadi. Ota-onaning butun umrlik maqsadi ham, vazifasi ham shu yutuq erishdir. Farzandlaridan kutadigan ulardan talab qiladigan eng katta orzu ham shu sanaladi. Bugun globalashuv jarayonining shiddatlar bilan tus olishi bu oilaviy munosabatlarimizga jiddiy ta'sir kursatmoqda. Ota-onaning farzandlarini milliy oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish vazifasi yoddan ko'tarilgan. Ular faqatgina kasb bilan mashg'ul, karera qilish bilan band o'z tashvishlari bilan bo'lishida farzandga ajratidigan vaqti esa juda kam vaqtni taqozo etadi. Tarbiya bu bizning hayotimiz uchun yoshlikdan boshlanadi qanday tarbiya bersak biz doim shuni qaytarib olamiz. Ertaga biz farzanddan iftihor tuyg'usini tuyish uchun shunga munosib tarbiya qilishimiz lozim.

Konfutsiyning ta'limotida oilaviy munosabatlarda juda ko'p fikrlar bildirilgan bo'lib uning bugungi kun uchun ham tarbiyaviy jarayonga keng qo'llasak maqsadga muvofiqdir. Konfutsiy ota-onani e'zozlash va uni qadrlash borasida o'z qarashlarida shunday fikr yuritadi, "Hammasi narsa osmondan, odamlar esa ajdodlardan" degan fikrdan boshlaydi. Shu munosabat bilan ota-onaga hurmati va uni qadrlashga katta ahamiyat beradigan Konfutsiy insonlar o'z ildizlarini hech qachon unutmasliklari va hurmatsizlik qilmasliklari kerakligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, u ajdodlar nafaqat o'tmishda, balki hozirgi kunda ham biz bilan birga, deb o'ylaydi. Oilaviy munosabatlarda shakllangan axloq tushunchasiga ko'ra, er va xotin, ota-onalar va bolalar, katta va kichik birodarlar o'rtasida uch qismdan iborat. Muhimi, bu munosabatlardagi tomonlar bir-birlari oldidagi majburiyatlarini samimiylik ishochlilik va sidqidildan bajarishlaridir. Biroq oilaviy munosabatlar atrofida shakllanadigan bu axloq tushunchasi faqat oila bilan chegaralanib qolmaydi, bu oilaviy fazilatlar ijtimoiy tartib va tinchlik uchun katta ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, hurmat oilada boshlanadi va o'rganiladi, keyin u boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarimizda va ijtimoiy tuzumda namoyon bo'ladi. Demak, bu jarayon jamiyatda ham ahamiyati katta ekanligi haqida fikrni izohlasak bo'ladi.

Farzandning o'z burchini bajarishini o'rgatmagan ota qanchalik aybdor bo'lsa, unga e'tiborsiz bo'lgan o'g'il ham shunchalik aybdor deb hisoblaydi. Konfutsiy ta'limotida, farzand tarbiyasiga nafaqat ota-onaga balki uning o'zi ham ijtimoiy muhit orqali o'z burchini anglashi hamda o'zi qarorlar chiqarishi shu bilan birga munosib farzand bo'lishi uchun harakat qilishi lozimligi haqida fikrni izohlayman. "Ota-onangizning xizmatini ado etayotganda, ularga ohista so'ylang. Agar ular sizning aytganlaringizni qilishni istamayotganliklarini ko'rsangiz, bari bir tavozeda turavering va odob qoidalarini buzmag. Hatto qon yutib turgan bo'lsangiz ham, koyinganingizni bildirmang"[2]. Konfutsiyning ushbu fikrlari islom dinida ham kengroq bayon etilgan. Quron Karim Isro (Bani Israil) surasining 23-oyati quyidagicha: "Albatta, Parvardigoringiz, yolg'iz Uning O'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsa, ularga qarab "uff" deb ham o'kmang va ularni qattiq so'kib ham, ularga hurmatli so'z aytib ham o'kmang". Oyating ma'nosi shundaki, Alloh taolo bandalariga faqat Ungagina ibodat qilishni va ota-onaga

yaxshilik qilishni buyurgan. Ota-onaga yaxshilik qilish har doim ham shart, lekin agar ularning biri yoki ikkalasi ham keksa yoshga yetsa, ularga "uff" deyish, ularni so'kish, ularga hurmatli so'z aytmaslik kabi noxush muomalalar taqiqlangan. Bu oyat yoshi ulug' bo'lgan ota-onalarga mehr-shafqatli bo'lishga chaqiradi. Darhaqiqat ota-onaga agar bir narsani yokida voqea hodisaga bo'lgan munosabati garchan notug'ri bo'lgan taqdirda ham biz uni to'g'ri deb turmog'ligimiz kerak. Shuning uchun ham aytiladiki, ota-onaga doim haqdir uni e'zozlash biz farzandlarning burchimizdir.

Mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning o'rni, ota-onaga va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqg'o'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo'lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Oila jamiyat, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bog'ini. Oila uch jihatni: nikohni, oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni hamda bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Qonunga binoan, nikoh tuzish shartlarida eng muhimi – nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganligi hisoblanadi. Oila poklik va soflik, ikki tomonlarga muhabbat, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Uning mustahkamligi oiladagi tinchlik-xotirjamlik, bir-biriga bo'lgan samimiy munosabat, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, xulq-odob inson ma'naviy qiyofasini ifoda etadi. Oila xulq-odob qadriyatlarini shakllantirishdagi asosiy mezon bo'lib, bu jarayonda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatlarining uyg'unlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Oila insoniyat uzluksizligi hamda qadriyatlar, urf-odat va an'analarni, qolaversa, butun bir xalq madaniy, ma'naviy merosini avlodlar-avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir. Aynan oilada insonlarga xos ma'naviy, axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik, hamdardlik tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi. Oiladagi eng asosiy mezon – ikki tomonning bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlashi, og'ir va quvonchli damlarda bir-biriga hamdard-hamnafas bo'lishini ta'minlovchi harakat uyg'unligidir. Oilaning muqaddas burchi va vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir. Farzand tarbiyasida oiladagi ma'naviy muhitning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ota-onaning ibrati va mas'uliyati har qachongidan muhimdir. Oila munosabatlari, asosan, ota-onaga va farzandlar o'rtasida kechgani bois ota oilaning sarboni hisoblanadi. Turli muammolarni hal qilishda otaning fikri hamda maslahati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, farzand tarbiyasida matonatli, fidoyi, sabr-toqatli, ba'zan qattiqqo'l, tejamkor otaning ham, mehridaryo, bag'rikeng yumshoqko'ngil onaning ham o'z o'rnini bor. Oiladagi sog'lom muhit, ota-onaga tarbiyasi orqali nafaqat jamiyatning bugungi kuni, balki uning istiqboli, avlodlar vorisligi ham belgilanadi. Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

Xulosa. Ota-onaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy vazifa yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi barchamizga ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun

garovdir. Farzand tarbiyasida oqillik bilan yondashib uni jamiyatga ijtimoiy munosabatlarga kirishishiga, hamda uni salbiy omillarga kirishib ketmaydigan matonatli qilib tarbiyalash darkor. Farzand shaxsiy qiyofasiga aks etadigan

ijobiy hislatlarni insonparvar halol to‘g‘ri so‘z, matonatli, vatanparvar barkamol komil bo‘lishi uchun u bu jihatlarni oiladan oladi. Oila sog‘lom bo‘lsa farzandning tarbiyasi ham sog‘lom bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nikoh>
2. Ismatullayeva N.R. Konfutsiy asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy atamalar semantikasi va ularning tarjimada berilishi (Monografiya). – T.: ToshDShI, 2020. – 128 bet.